

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING FAOLLIGINI OSHIRISH

Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani

70 -maktab biologiya fani o'qituvchisi

Tosheva Muxabbat Komilovna

Annotatsiya: O'qituvchi darsda o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish uchun o'quv dasturidan mazkur sinf uchun belgilangan tayanch kompetensiyalarni belgilab oladi. Shundan so'ng, o'rganilishi zarur bo'lgan mavzu va shakllantiriladigan kompetensiyalarni hisobga olgan holda ta'lif texnologiyasini tanlaydi.

Kalit so'zlar: Biologiya fani, didaktik o'yin, modulli ta'lif, hamkorlikda o'qitish, muammmoli o'qitish, loyihalash texnologiyasi, ana'anaviy ta'lif texnologiyalari.

Biologiya fanini o'qitishda didaktik o'yin, modulli ta'lif, hamkorlikda o'qitish, muammmoli o'qitish, loyihalash texnologiyasi, ana'anaviy ta'lif texnologiyalaridan keng foydalilanadi. O'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishda ta'limga faol va interfaol yondashilishi kerak. Passiv yondashuvda o'qituvchi mavzuni bayon etadi. O'quvchi ularni tinglaydi va tegishli qismlarini yozib oladi.

Uy vazifalarini qo'llanma, darsliklardan o'qib o'rnatadi. Bu jarayonda o'quvchi bilan o'qituvchi orasida bir tomonlama aloqa o'rnatiladi. O'quvchi o'zdarajasida, ya'ni qobiliyati, qiziqishi, istagi, xohishi darajasida o'zlashtiradi. Unda ta'lif mazmunini o'zlashtirish kafolatlanmaydi. O'quvchilarda kompetensiyalar o'qituvchi tomonidan tayyor aytib berilgan ma'lumotlar bilan shakllanmaydi.

O'qituvchi ta'lif mazmunini bayon etish uchun bor kuchini, mahoratini ishga solib dalil, ko'rgazmali qurol, didaktik tarqatma materiallar yordamida tushuntirishga harakat qiladi. O'qituvchi o'quvchilar bilan mavzu yuzasidan fikr almashadi, ijodiy ishlar, amaliy topshiriqlar beradi. O'quvchilar uy ishlarini mustaqil ishslash, takrorlash orqali bajaradilar.

Bu jarayonda o'quvchi bilan o'qituvchi orasida ikki tomonlama aloqa o'rnatiladi. Ta'lif mazmunini birmuncha o'zlashtirishga erishiladi. Bunday yondashuvda

o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarning elementlari to'liq bo'lmasada, shakllanadi. Bunday deyilishiga sabab shuki, kommunikativ kompetensiyaning "kichik guruhlar bilan ishlash jarayonida guruh a'zolarining javoblarini tinglay olish", "hayvonlar haqidagi ma'lumotlarni o'z o'rtog'iga tushuntirish" yoki ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasining "tirik organizmlarning o'ziga xos jihatlarini bilishi, ularning salbiy tomonlarini o'zidankichik bo'lgan yoshlarga o'rgatish jarayonida faol ishtirok etishi", milliy va umumadaniy kompetensiyaning "insonlarga nisbatan mehr-muruvvat, sahiylik, o'zgalarning dunyoqarashini hurmat qilishi" kabi elementlari shakllanishi o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati tashkil etilgandagina amalga oshadi.

Faol yondashuv esa o'qituvchi va yakka holdagi o'quvchining muloqoti ko'rinishida bo'ladi. O'quvchilarning o'zaro fikr almashishlariga imkon beriladi: yechimini kutayotgan masalalarni hamjihatlikda muhokama etadilar, yechadilar, vaziyatdan chiqishda hamkorlikda yechim topadilar. Olgan axborotlari asosida bilimlarini bir-birlariga namoyish etadilar. Bir-birlaridan ilhomlanib, ruhiy qoniqish hosil qiladilar.

Ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirishga erishiladi. Interfaol yondashuv o'quvchilarda kompetensiyalarning to'liq shakllanishiga imkon beradi. Kompetensiyalarni shakllantirishda qo'llaniladigan ko'pgina usul, metod va texnologiyalar mavjud. Ulardan yuqori samara beradigan metodlar, texnologiyalardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Loyihalash metodi o'quvchilar uzluksiz ravishda murakkablashib boradigan amaliy topshiriqni rejalash, konstruksiyalash va bajarish jarayonida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladigan o'qitish tizimidir. Ta'lim oluvchilar muammoli masalalar bilan bog'liq loyihalarni bajaradilar.

Demak, o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishda, avvalo, mavzu mazmunidan kelib chiqib, biologiya fanining o'quv dasturi keltirilgan qaysi kompetensiyalarning elementlarini shakllantirishini belgilaydi, so'ng shu kompetensiyalar elementlarini shakllantirishda eng samarali natija beradigan pedagogik texnologiyalardan birini maqsadli ravishda tanlaydi .

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Pedagogika oliy ta'lif muassasalari talabalari uchun darslik. Toshkent, 2014.
2. Shaxmurova G.A., Azimov I.T., Raxmatov U.E. Biologiyadan masala va mashqlar yechish. O'quv qo'llanma. "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti. Toshkent, 2017.
3. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya ta'limi texnologiyalari. Metodik qo'llanma "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent, 2002.